

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”**da
amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida
TAHLILIY MA'LUMOT

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH							
22-maqсад: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish							
42	“Yoshlik” mis konini o'zlashtirishning birinchi bosqichi yakuniga yetkazib, 60 million tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega 3-misni boyitish fabrikasini ishga tushirish.	1. «Yoshlik» mis konini o'zlashtirish» investitsiya loyihasi doirasida rejalashtirilgan “Yoshlik I” va 3-misni boyitish fabrikasi uchun asosiy texnologik uskunalarni qurilish maydonchasiga yetkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023 yil avgust	Hisob-kitoblarga ko'ra (tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, tijorat banklari krediti)	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi “Olmaliq KMK” AJ, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	<u>Bajarilmoqda.</u> Asosiy texnologik uskunarlar Enter Engineering Pte.Ltd va “Uralmashzavod” OAJ bilan 2021 yil 21 sentabrda tuzilgan YeRS-shartnomasi doirasida yetkazib berilmoqda. Hozirda “Uralmashzavod” OAJ tomonidan qurilish maydonchasiga barcha 8 ta o'rta holda maydalash maydalagichi va sharli tegirmon, WEIR (Turkiya) kompaniyasi tomonidan 8 kompl. gidrotsiklon klasterlar va 24 kompl. nasoslar, SEVER MINERALS (JAR) kompaniyasi tomonidan 9 uchlamchi g'alvirlar va 12 ta gravitatsion ximoya g'alvirlari, AUMUND (Germaniya) kompaniyasi tomonidan 16 ta plastinali ta'minlagichlar, “PNEVMASH” AJ tomonidan 4 ta vibratsion g'alvirlar yetkazib berildi. Bundan tashqari joyida yig'ish maqsadida “Uralmashzavod” OAJ va boshqa ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tomonidan sharli tegirmonlarning quyidagi butlovchi qismlari yetkazib berildi: 12 ta butalarlar, 12 kompl. gidrostatik podshipniklar, 8 kompl. tishli tojlar, 11 kompl. elektr dvigatellar, 14 ta transformatorlar va b. METSO (Finlyandiya) kompaniyasi tomonidan flotatsiya mashinalari uchun 7 kompl. reduktorlar va 6 kompl. elektr dvigatellar yetkazib berildi.
		2. Rudani qayta ishlash quvvati 60 million tonna bo'lgan 3-misni boyitish fabrikasida qurilish-montaj ishlarini yakunlash va uning 1-liniyasini ishga tushirish.		2023 yil sentyabr			<u>Bajarilmoqda.</u> Qurilish-montaj ishlari Enter Engineering Pte.Ltd va “Uralmashzavod” OAJ bilan 2021 yil 21 sentabrda tuzilgan YeRS-shartnomasi doirasida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda 12,8 mln m ³ turpoq ishlari, 48 144 tonna armaturalash, 289,2 ming m ³ beton ishlari, 0,9 ming tonna metall konstruksiyalarni montaj ishlari bajarildi.

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Masʼul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
							Oʻrta holda maydalash maydalagich korpusining 6 ta staninasi oʻrnatildi.
43	Olmaligda misni boyitish fabrikasi va Mis eritish zavodi loyihalarini boshlash.	1. “Olmalig KMK” AJ negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish boʻyicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023 yil avgust	Hisob-kitoblarga koʻra (tashabbuskorlarning oʻz mablagʻlari, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiyalar)	Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi “Olmalig KMK” AJ, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	<u>Bajarilmoqda</u> “Olmalig KMK” AJ negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish boʻyicha Metallurgiya majmuasi obyektlarining asosiy 4 ta (1. <i>Metallurgiya tsexi</i> , 2. <i>Misni elektrolizlash tsexi</i> , 3. <i>Sulfat kislotasini ishlab chiqarish tsexi</i> va 4. <i>Shlaklarni qayta ishlab, boyitish fabrikasi</i>) boʻlimlari uchun Finlyandiyaning “Metso:Outotek” kompaniyasidan EPS-shartlari asosida shartnoma tuzish uchun 2023 yil 10 fevralda tijorat taklifi olindi. EPS-shartlari asosida shartnoma xuquqiy-yuridik jixatdan Dentons va loyihalash doirasidagi uskuna-jixozlarni narxlanishi boʻyicha Worley kompaniyalari tamonidan ekspertizadan oʻtkazilgandan soʻng tegishli vazirliklarga topshiriladi. Vazirliklarning hulosalariga asosan belgilangan muddat ichida Xukumat Qarori loyihasi ishlab chiqiladi.
		2. “Olmalig KMK” AJ tomonidan mis eritish quvvatlarini kengaytirish ning asosiy muhandislik-loyihalash (Basic Engineering) ishlarini yakunlash		2023 yil mart			<u>Toʻliq bajarildi</u> Basic Engineering ishlarini bajarish uchun Finlyandiyaning “Metso:Outotek” kompaniyasi bilan 2022 yil 11 noyabrdagi S2003779-01-9887yur-son 17,5 mln. yevroga teng shartnoma imzolandi. Bugungi kunga qadar Basic Engineering ishlari taqdim etildi, shu jumladan: loyihaning dastlabki bosh rejasi; moddiy va energetik balans; texnologik jarayonlarning blok sxemalari; asosiy texnologik va nazorat oʻlchov uskunolari roʻyxati; jixozlarning texnik tasnifi; jixozlarning elektr-energiyasiga boʻlgan talabi; mavjud mis eritish zavodi xududlarini lazerli skanerlash natijalari; Yangi metallurgiya kompleksi va oʻrnatiladigan asbob-uskunalar tarkibi hamda kafolatlangan texnologik koʻrsatkichlari olindi. Bugungi kunda asosiy muhandislik-loyihalash (Basic Engineering) ishlari yakunlandi. Tegishli axborot va tasdiqlovchi hujjatlar Adliya vazirligiga kiritildi (2023 yil 16 martdagi 03-23/01-0426-son xat).
		3. “Olmalig KMK” AJ mis eritish quvvatlarini kengaytirishning dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishni yakunlash.		2023 yil iyun			<u>Bajarilmoqda</u> Mis eritish quvvatlarini kengaytirishning dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish uchun Kanadaning HATCH kompaniyasi bilan

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Masʼul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
							93-4936yur-son 2,42 mln yevroga teng shartnoma imzolandi. Bugungi kunga qadar eritish texnologiyalar xususiyatlarini taqqoslash boʻyicha hisobot, umumiy texnologik jarayonlar va elektrifikatsiyalash uchun mezonlar, moddaviy balans hamda loyihaning birlamchi bosh rejasi olindi.
23-maqsad: Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilgʻor xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish							
60	Geologiya-qidiruv sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish , mahalliy xomashyolarni sanoat usulida chuqur qayta ishlash texnologiyalarini yaratish..	1. Uglevodorodga istiqbolli maydonlar boʻyicha seysmik maʼlumotlarni yuqori aniqlikdagi zamonaviy “Paradigm” dasturiy taʼminotida qayta ishlash hamda 18 ta maydonning 3D modelini yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023 yil davomida	-	Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Olmaliq KMK” AJ	
		2. Zamonaviy GIS texnologiyalaridan foydalangan holda Oʻzbekiston Respublikasining 1:500 000 miqyosdagi raqamli gidrogeologik xaritasini yaratish.					
		3. Angren konida kaolin va Gushsoyda alunit madanlaridan alyuminiy oksidini ajratib olishning texnologik sxemasini ishlab chiqish.					
		4. Mahalliy xomashyolar asosida boʻyoq tayyorlashda ishlatiladigan 50 foizli vodorod peroksidi va natriy perekarbonatini ishlab chiqarish texnologiyasini oʻzlashtirish.					
		5. Plazmatron yordamida reniy metall kukunini ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish.					<u>Bajarilmoqda.</u> “Olmaliq KMK” AJ va Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ion plazma va lazer texnologiyalari instituti oʻrtasida 2022 yil 19 oktyabrda “Plazmatron yordamida reniy metall kukunini ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish” mavzusida 63-9114yur sonli 335,0 mln.soʻmlik tadqiqot shartnoma imzolandi. Tadqiqot ishi doirasida kombinat institutga 10 kg miqdorida ammoniy perrenatini olib borib berdi. Institut xodimlari tomonidan esa taqdim etilgan ammoniy perrenatidan reniy metall kukunini olish boʻyicha laboratoriya plazmatron qoʻrilmasi yaratildi va laboratoriya sharoitida 1 kg 99,97% reniy metall kukuni olindi. Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishining 1-bosqichi bajarilgan

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Masʼul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
							boʻlib, 100,0 mln. soʻm miqdorida moliyalashtirildi. Hozirgi kunda olingan reniy metall kukunining sifat darajasini yanada koʻtarish, uning granulometrik shakllari oʻrganilmoqda.
24-maqсад: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish							
68	Kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni keskin oshirish.	2023 yilda davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy hokimliklar tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini oʻrnatish boʻyicha manzilli dasturni ishlab chiqish va kiritish.	Vazirlar Mahkamasi qarori	2023 yil aprel		Energetika vazirligi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi “Olmaliq KMK” AJ, “Oʻzmetkombinat” AJ, vazirlik va idoralar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	<u>Toʻliq bajarildi.</u> 2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish boʻyicha takliflar hamda yoqilgʻi-energiya resurslarini tejashning amaliy chora-tadbirlari ishlab chiqilib, ular Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son qarorida nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2023 yilda 9041 kVt quvvatli kichik hajmdagi energiya manbalaridan foydalanish va 4800 litr hajmdagi quyosh suv isitkichlarini oʻrnatishni taʼminlash boʻyicha reja-jadvallar tasdiqlanib amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, qarorga 1-ilovaning 19-bandiga muvofiq 2023-2025 yillarda Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida quvvati 1 GVt boʻlgan quyosh fotoelektr stantsiyasini bosqichma-bosqich qurish boʻyicha, “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqariladigan elektr energiyasining asosiy isteʼmolchisi sifatida belgilanib, Energetika vazirligi bilan birgalikda investorlarni jalb qilish choralari koʻrilmoqda. Tegishli axborot Adliya vazirligiga kiritildi (2023 yil 17 mart 03-23/01-0431-son xat).
27-maqсад: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni koʻpaytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish							
79	Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoatning yetakchi tarmoqlarini yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish.	2023 — 2026 yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environment, Social, Governance)ni joriy etish, bunda atrof-muhit, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv omillari (ESG omillari), shuningdek, barqaror rivojlanish masalalari bilan bogʻliq	Chora-tadbirlar rejasi	2023 yil oktyabr	-	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	<u>Bajarilmoqda.</u> 2023 yil 14 martdagi “Olmaliq KMK” AJ ijro apparati tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish toʻgʻrisidagi” 332-son buyrugʻiga muvofiq Barqaror rivojlanish (ESG) boʻlimi tashkil etildi.

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Masʼul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
		omillarni hisobga olish masalalari jamiyatlar boshqaruv organlarida koʻrib chiqilishini tashkillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish. Xalqaro moliya institutlarini jalb qilgan holda quyidagi korxonalarda ESGni joriy etish: 2023 yilda — “Oʻzmetkombinat” AJ; 2024 yilda — “Navoiy KMK” AJ, “Olmaliq KMK” AJ; 2025-2026 yillarda — boshqa davlat ishtirokidagi boshqa yirik korxonalar.				“Oʻzmetkombinat” AJ, “Navoiy KMK” AJ, “Olmaliq KMK” AJ	